

Jizzax viloyatida bajarilgan qurilish ishlari


2026-yil yanvar-fevral oylari uchun

- I. Jami bajarilgan qurilish ishlari
- II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari
- III. Jami qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti
- IV. Qurilish ishlari bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Jami bajarilgan qurilish ishlari

2026-yilning yanvar-fevral oylarida, Jizzax viloyatida jami 682,2 mlrd so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati 2025-yilning mos davriga nisbatan 118,3% ni tashkil etdi.

Bajarilgan qurilish ishlari dinamikasi



	Hajmi, mlrd so'm*	O'sish sur'ati, %
Jizzax viloyati	682,2	118,3
Jizzax shahri	163,7	87,3
Arnasoy	8,5	88,7
Baxmal	27,0	135,0
G'allaorol	22,6	138,0
Sharof Rashidov	96,4	191,2
Do'stlik	19,6	127,0
Zomin	60,9	156,4
Zarbdor	12,2	140,9
Mirzacho'l	9,1	116,9
Zafarobod	25,1	184,5
Paxtakor	27,3	112,3
Forish	18,0	140,3
Yangiobod	3,5	71,5

*) Norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda.

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)


[Qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)

I. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

2026-yilning yanvar-fevral oylarida Jizzax viloyatida bajarilgan qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha:

- binolar va inshootlar qurilishi hajmi 525,5 mlrd so'mni (ulushni 77,0%), o'sish sur'ati 2025-yilning mos davriga nisbatan 92,6 %;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 125,4 mlrd so'mni (18,4%), o'sish sur'ati 2025-yilning mos davriga nisbatan 157,4 %;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 31,3 mlrd so'mni (4,6%), o'sish sur'ati 2025-yilning mos davriga nisbatan 77,0% ni tashkil etdi.


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari o'sish sur'ati va hajmi



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

- [Bino va inshootlar qurilishi hajmi \(oylik\)](#)
- [Bino va inshootlar qurilishi hajmi \(yillik\)](#)
- [Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi \(oylik\)](#)
- [Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi \(yillik\)](#)
- [Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)
- [Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)

II. Jami qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti va o'sish sur'ati




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2026-yilning yanvar-fevral oylarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 98,2 mlrd soʻmni tashkil etdi. Kuzatilayotgan davrda qurilish ishlari hajmi 2025-yilning mos davriga nisbatan 2,8 martaga oshib, ularning umumiy hajmdagi ulushi 8,0 % ga koʻpaydi va 14,4 % ni tashkil etdi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 47,7 % toʻgʻri kelib, bajarilgan qurilish ishlari hajmi 325,4 mlrd soʻmni tashkil qildi va 2025-yilning mos davriga nisbatan 7,1 % ga koʻpaydi.

Norasmiy sektorda qurilish ishlarining ulushi 37,9 % ni yoki 258,6 mlrd soʻmni tashkil etib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 9,2 % ga koʻpaydi.

Korxonalar turlari boʻyicha bajarilgan qurilish ishlari hajmi va oʻsish surʼatlari



Hududlar kesimida korxonalar turlari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari

	Hajm, mlrd so'm			O'sish sur'ati, % da		
	Yirik	Kichik va mikrofirmalar	Norasmiy sektor	Yirik	Kichik va mikrofirmalar	Norasmiy sektor
Jizzax viloyati	98,2	325,4	258,6	2,8 m	107,1	109,2
Jizzax shahri	6,9	131,4	25,4	2,8 m	78,7	140,0
Arnasoy	1,2	3,7	3,6	49,2	8,6 m	53,4
Baxmal	1,5	7,2	18,2	3,4 m	2,1 m	113,9
G'allaorol	0,8	7,8	14,0	113,9	2,1 m	117,9
Sharof Rashidov	25,2	54,5	16,7	0	150,5	117,3
Do'stlik	1,1	3,9	14,6	2,4 m	92,6	135,4
Zomin	11,0	35,8	14,0	117,7	2,1 m	113,6
Zarbdor	0,6	1,7	9,8	251,3	98,9	147,6
Mirzacho'l	1,9	1,9	5,2	159,9	102,8	111,4
Zafarobod	18,2	2,0	5,0	11,1 m	174,8	45,7
Paxtakor	5,8	11,6	9,9	2,6 m	82,0	125,3
Forish	1,6	7,7	8,6	191,4	2,9 m	92,8
Yangiobod	0,6	1,5	1,5	121,0	4,0 m	36,0

**) Norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda.*

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'atlari Zafarobod (2025-yilning mos davriga nisbatan 11,1 m), Baxmal tumani (3,4 m) va Jizzax shahrida (2,8 m) qayd etildi.

Ko'rib chiqilayotgan davrda kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'atlari Arnasoy (2025-yilning mos davriga nisbatan 8,6 m), Yangiobod (4,0 m) va Forish (2,9 m) tumanlarida kuzatildi.

IV. Qurilish ishlari uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Qurilish ishlari – bino va inshootlarni barpo etish, qayta tiklash, kengaytirish, kapital va joriy ta'mirlash ishlari majmuasi sifatida qurilish ishlab chiqarishining natijasidir.

Qurilish ishlari qiymatiga qurilish uchastkalarining o'zlashtirish ishlari rejasini tuzish va tayyorlash, suv ta'minoti, issiqlik, kanalizatsiya, poydevorlarni o'rnatish, devorlarni ko'tarish, bino konstruksiyalarini montaj qilishning sanitar-texnika ishlari, boshqa pudrat ishlari (ishga tushirish va sozlash, gidroyuvish ishlari, yer qatlamini ochish, texnik-madaniy ishlar va boshqalar) kiritiladi.

Qurilish ishlarining statistik hisobi hisobot davrining amaldagi narxlarida, qo'shilgan qiymat solig'ini qo'shmagan holda, to'lov muddatidan qat'i nazar, hisobot davrida haqiqatda bajarilgan hajm bo'yicha amalga oshiriladi.

Qurilish ishlari hajmi bo'yicha statistik ma'lumotlar quyidagilar asosida shakllantiriladi:

a) qurilish faoliyatini olib boruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik);



b) kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyatining choraklik tanlanma kuzatuv natijalari;

d) jismoniy shaxslar tomonidan yakka tartibdagi uy-joy va noturar-joy obyektlar qurilishi monitoringi bilan shug'ullanuvchi O'zbekiston Respublikasi Davlat kadastrlari palatasining hududiy boshqarmalari statistika hisobotlari;

e) foydalanishga topshirilgan yakka tartibdagi uy-joylarni tanlama statistik kuzatuv ma'lumotlari;

f) yakka tartibdagi uy-joylarni xo'jalik usuli bilan ta'mirlash hajmini statistik baholash.

Metama'lumot uchun havola:

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1875/Qurilish-ishlari.pdf>

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1877/Aholi-jon-boshiga-qurilishishlari.pdf>

Tayyorlash uchun mas'ul:

Investitsiyalar va qurilish
statistikasi bo'limi

Ijrochi:

K. Butunbayeva
72 221-51-02

Manzil:

Kimyogar maxallasi to'qimachilar
ko'chasi
